

O'YIN MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDA YETAKCHI
FAOLIYAT SIFATIDA

Bobanov Xurshid Abdirahmatovich

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

Xasanova Madina

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
maktagacha ta'lif yo'naliши 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi hisoblangan turli o'yinlar, kichik va katta bog'cha yoshidagi bolalar o'ynaydigan o'yinlar, o'yinlarning bolalar dunyoqarashi va tafakkurining shakllanishi hamda rivojlanishidagi ahamiyati, bolaning tasavvur etish xarakteriga ko'ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, nutq, qoida, harakat, ijtimoiy, ta'sir, munosabat, harakatli o'yin, didaktik o'yinlar, qoidali o'yinlar.

O'yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. O'yin ma'lum maqsadga ko'ra yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor. Ya'ni o'yin yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O'yinda bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, xis va didlari tarbiyalanadi. O'yin tanlay bilish muhim ahamiyatga ega. O'yin bilan ta'lif o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhdagi ta'lif jarayonida o'yin asosiy o'rinni egallasa, katta guruhda borganda esa mashg'ulotlarda ta'lifning roli ortadi. Tayyorlov guruhidagi bolalarning o'zlarida o'z-o'zidan o'qishga ishtiyoq uyg'onadi. Ammo har qanday holatda ham bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi. Bola o'yin jarayonida atrofdagi narsalar bilan amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bolalarning o'yin faoliyatida ularning jismoniy va psixik jihatdan rivojlanishi uchun birdan-bir

vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-hayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin orqali namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa-hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarni barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. O'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, balki bolalar hayolining o'zi o'yin davomida yuzga kelib rivojlanadigan pisixik jarayondir. Bolalarning o'yin faoliyatida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi. Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rolning ko'pincha umuniylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida turli kasb egalarining xatti-harakatlarini aks ettiradi. O'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga va tartib intizomga bo'ysunish va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi. Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning rollariga taqlid qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlar asosida quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar. O'yinda unga amal qilishni qattiq nazorat qiladilar va o'zları ham unga rioya qilishga harakat qiladilar. Bolalarning syujetli-rolli o'yinlari turli mavzularda bo'lib, bolalar ular bilan hayotiy tajribasiga muvofiq yaxshi tanishdir. Bola tarafidan o'yinda qayta ijro etiladigan rollar oilaviy yoki ertak qahramonlari yoki kasbiy rollardir. Rollarni ijro etuvchilar kattalar yoki bolalar yoki ularning o'rnini bosuvchi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar bo'lishi mumkin. O'rta va katta maktabgacha yosh davrida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, biroq kichik maktabgacha yosh davrida o'yinlar kiritiladigan va amalga oshiriladigan mavzulari, rollari o'yin harakatlarining qoidalari bilan va ularni turli-tumanligi bilan farqlanadi. O'yinlarda asosiy rol qoidalari rioya qilishga va munosabatlarga nisbatan ajratiladi. Bunda birinchi marotaba bolalarda ledirlik, tashkilotchilik, ko'nikma, malakalar rivojlanadi. O'yinli individual faoliyatning ramziy shakllaridan yana

biri rasm chizishdir. Bola ko'rganlarini tasvirlashda narsalarni alohida sinflarga ajratadi. Taxmin qilish, muvaffiyatga erishish motivatsiya shakllanadi va mustahkamlanadi. O'yin jarayonida bola turmushda zarur bo'lgan nimanidir yasaydi, yaratadi va quradi. Bolalar bunday o'yinlarda oddiy mehnat, ko'nikma va malakalarni egallaydi, ularda amaliy tafakkur rivojlanadi. Bola o'yinda ko'plab uy-ro'zg'or asboblari va predmetlardan foydalanishni o'rganadi. Unda o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish qobiliyatları paydo bo'ladi. Ko'p harakatlari, aqliy operatsiyalari tasavvur va hayoliy takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati rolli o'yinlardir. Rolli o'yinlar-maktabgacha yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, bunda bolalar go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifa va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Bolalar kattarning turmush tarsi xususiyatlarini go'yoki o'yin orqali namoyon etadilar. O'yin faqat bilish jarayonilarini takomillashtirib qolamay, balki bolalarning xulq atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola o'yin faoliyatida maktab talimiga tayyorlanib boradi. Shu boisdan unda aqliy harakatlarining yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. O'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ilal boshlaydi. O'yin orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini boshqarishni o'rganadilar. O'yinlar yordamida ular stressni kamaytirish, quvonchni baham ko'rish va qayg'uni engish kabi emotsiyal ko'nikmalarni rivojlantiradilar. O'yin davomida bolalar birgalikda ishlash, qoidalarni hurmat qilish, muloqot qilish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganadilar. O'yin orqali bolalar o'zlarining tasavvur va ijodiy fikrlashlarini rivojlantiradilar. Masalan, bolalar turli rollarda o'ynash orqali dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar. Harakatli o'yinlar bolalar uchun jismoniy rivojlanishning muhim elementidir. Bu turdag'i o'yinlar ularning motor ko'nikmalarini, koordinatsiyasini va muskul kuchini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun muhim o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ularning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi. O'yin davomida bolalar o'z salohiyatini to'liq namoyon qilib, yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Shuningdek, o'yin bolalar uchun tilni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, va

ijodkorlikni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘yin orqali bolalar motorizm va jismoniy rivojlanishini mustahkamlashadi. Ko‘plab jismoniy o‘yinlar bolalar uchun harakatlanish, muvozanatni saqlash va motorik ko‘nikmalarini yaxshilash imkonini beradi. O‘yin orqali bolalar o‘z hissiyotlarini ifoda etish, boshqarish va boshqalar bilan emotsional aloqalarni o‘rnatishni o‘rganadilar. O‘yin davomida bolalar boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rganadilar, jamoada ishlash, tartibni saqlash va o‘zaro hurmatni Bolalar tasavvur qilish, kuzatish, eslab qolish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi aqliy faoliyatlarni o‘ynash orqali rivojlantiradilar. O‘yin, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun eng muhim faoliyat turidir. Ularning dunyoqarashini rivojlantirishda, ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini shakllantirishda, intellektual salohiyatini oshirishda o‘yining o‘rni katta. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin nafaqat ko‘ngilxushlik, balki ta’lim jarayonining asosiy vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. " Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi ".T:2005 yil.
2. M.G.Davlatsheva va boshqalar " Yosh davrlar va pedagogik psixologiya ".T : 2004 yil
3. E.G. Goziyev " Ontogenetik psixologiyasi " .T : 2010 yil
4. Dusmukamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Shu.T., Alimboeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya .
5. Omonova.M&Tojiyeva.D(2024) Psixologik Xizmatlarning INSON HAYOTIDA

IMONOVA.M.&.MUHAMMADOVA,D TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT.

IMONOVA M.B.Oila tinchligi-jamiyat farovonligi asosi.

6.Vohidov.M.V"Maktabgacha tarbiya psixologiyasi.T.,O‘qituvchi",1994.y.b34-40.

7.Vohidov."Bolalar psixologiyasi" Toshkent.1992.y